O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

| “Kiritdi” | “Kelishildi” | “Tasdiqlayman” |
| --- | --- | --- |
| O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori | O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o‘rinbosari | O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari |
| ____________ K.T.Urinbayev | ____________ S.B.Rajabov | ____________ A.B.Tadjixanov |
| « ____ » ________ 2026-yil | « ____ » ________ 2026-yil | « ____ » ________ 2026-yil |

# KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

**60211500 – Ta’lim yo‘nalishi: Cholg‘u ijrochiligi**

**60211509 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (nay-qo‘shnay, bayan-akkordeon)**
**60211510 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (chang)**
**60211511 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (rubob prima, qashqar va afg‘on rubobi)**
**60211512 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (dutor, dutor bas, dutor kontrabas, tanbur)**
**60211513 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (zarbli cholg‘ular)**
**60211514 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak, g‘ijjak alt)**
**60211515 - Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak qobus-bas, g‘ijjak qobus-kontrabas) ta’lim yo‘nalishlari uchun**

Toshkent - 2026 yil

*Dastur O'zbekiston davlat konservatoriyasining O'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (20___-yil __ ______dagi ___-sonli majlis bayoni).*

| | |
|---|---|
| **Tuzuvchilar:** | **B.Mirpayazov** – "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi mudiri, professor |
| | **A.Tashmatova** – "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi professori, san.fan.dok. (DSc) |
| | **Q.Nazirov** – "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi professori |
| | **N.Sharipov** – "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi professori |
| | **I.Ikromov** – "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi professori |
| **Taqrizchi:** | **S.Turatov** – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Cholg'u ijrochiligi va musiqa nazariyasi" kafedrasi dotsenti |
| | **Z.Turapov** – O'zDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi professori |

## Kirish

60211509 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (nay-qo‘shnay, bayan-akkordeon);

60211510 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (chang, qonun);

60211511 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (rubob prima, qashqar va afg‘on rubobi);

60211512 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (dutor, dutor bas, dutor kontrabas, ud, tanbur, dombira);

60211513 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (zarbli cholg‘ular);

60211514 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak, g‘ijjak alt);

60211515 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak qobus-bas, g‘ijjak qobus-kontrabas).

Ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha 1-fan kasbiy (ijodiy) ixtisoslikdan imtihon dasturi, 2-fan Musiqa tarixi va nazariyasi fanidan abituriyentlarning amaliy-nazariy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asarlarni ijro etish borasida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

## 1-FAN
## “XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK”

### Fanning maqsadi va vazifalari:

60211509 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (nay-qo‘shnay, bayan-akkordeon);

60211510 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (chang, qonun);

60211511 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (rubob prima, qashqar va afg‘on rubobi);

60211512 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (dutor, dutor bas, dutor kontrabas, ud, tanbur, dombira);

60211513 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (zarbli cholg‘ular);

60211514 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak, g‘ijjak alt);

60211515 - Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak qobus-bas, g‘ijjak qobus-kontrabas).

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan tarzda me’yoriy dasturni o‘zlashtirish ustida ish olib boriladi.

“Xalq cholg‘ularida ijrochilik” fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini o‘zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iboratdir. Asosiy e’tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada

ko'rsatib berishga qaratilishi kerak. Ixtisoslik fani yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo'lgan, ya'ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog'onalari xususan, adabiyot va san'at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo'lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

## Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

60211509 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (nay-qo'shnay, bayan-akkordeon); 60211510 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (chang, qonun); 60211511 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (rubob prima, qashqar va afg'on rubobi); 60211512 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (dutor, dutor bas, dutor kontrabas, ud, tanbur, dombira); 60211513 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (zarbli cholg'ular); 60211514 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (g'ijjak, g'ijjak alt); 60211515 - Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (g'ijjak qobus-bas, g'ijjak qobus-kontrabas). ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirayotgan abituriyent 30 daqiqagacha davom etadigan ijro dasturini taqdim etishi shart.

## Cholg'uda ijro dasturi

60211509 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (nay-qo'shnay, bayan-akkordeon);

60211510 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (chang, qonun);

60211511 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (rubob prima, qashqar va afg'on rubobi);

60211512 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (dutor, dutor bas, dutor kontrabas, ud, tanbur, dombira)

60211513 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (zarbli cholg'ular);

60211514 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (g'ijjak, g'ijjak alt);

60211515 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (g'ijjak qobus-bas, g'ijjak qobus-kontrabas).

Ta'lim yo'nalishlariga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro'yxat asosida, yakka tarzda, tayyorlangan dasturni fortepiano jo'rligida yoddan ijro etishadi.

Abituriyent asarlar nota matnini xatosiz, asarning sur'atini ko'rsatilgan tezlikda, ijro shtrixlarini to'g'ri qo'llagan holda, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, pozitsiya va applikaturani to'g'ri qo'llagan holda, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq ochib bergan holatda ijro etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalarining qo'llanishi, tovush kuchi va uni boshqarish, hamda uning sifati asosiy ahamiyatga ega.

## NAY

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar, masalan: P.Chaykovskiy – "Barkarolla", M.Oginskiy – "Polonez", N.Dautov – "Yolg'izlik", P.Chaykovskiy – "Ariya Lenskiy", Y.Sabzanov – "Pomir kirik kuyi", N.Dautov – "Fotima"
2. Yirik asarlar, masalan: S.Ryauzov – "Konsert" III-qism, F.A.Rossler – Rosetti – "Konsert poema" II-III qismlar, B.Romberg – "Konsert" I-qism, V.A.Mosart – "Konsert" D-dur I-qism, V.Morchello – "Sonata" d-moll, A.Vivaldi – "Konsert", A.Kudryatsev – "Moldovancha rapsodiya", A.Xachaturyan – "Konsert".
3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: O'zbek xalq kuyi – "Qalandar (Soyai)" , D.Zokirov – "Ey sabo", M.Murtazoyev – "Tamanno", M.Muxamedov – "Bir kelsun", M.Muxammedov – "Nay yallasi", O'zbek xalq kuyi – "Subhidam"

## QO'SHNAY

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar, masalan: M.Oginskiy – "Polonez", N.Norxo'djayev – "Hayol", M.Otajonov – "Naqsh", Sh.Sobirov – "Muqarrar", I.Raximov – "Sabo", N.Ro'ziyev – "Ohista"
2. Yirik asarlar, masalan: O. Abdullayeva – qo'shnay cholg'usi uchun maxsus yozilgan "Konsert", M. Bafoyev - qo'shnay cholg'usi uchun maxsus yozilgan "Konsert", A. Otajonov – "Konsert poema", S. Jalil – "Konsertino"
3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: O'zbek xalq kuyi – "Qalandar (Soyai)" , D. Zokirov – "Ey sabo", M. Murtazoyev – "Tamanno", D. Zokirov – "Ko'rmadim", O'zbek xalq kuyi – "Yolg'iz"

## BAYAN-AKKORDEON

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar, masalan: A.Xachaturyan – "Gopak" из балета "Gayane", K.Myaskov – "Украинский танец", J.Kati – "Концертный триптих" I qism
2. Yirik asarlar masalan: I.Yashkevich – "Sonatina" D-dur, N.Budashkin – "Konsert",
3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: A.Sultonov – B.Giyenko – Final "Qoraqolpocha syuita" III qism, Rus xalq kuyi – "То не ветер ветку клонит". Концертные vариатции А.Суркоvа.

## CHANG

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar masalan: L.Betxoven – "Romans", P.Chaykovskiy – "Melodiya", A.Bizov – "Sha-shtil", A.Sigankov – "Yevreycha melodiya", S.Raxmaninov –

"Vokaliz", Yu.Vesnyak – "Noktyurn", M.De.Falya – "Ispancha raqs", I.Fralov – "Ispancha fantaziya, A.Xachaturyan – "Lezginka"

2. Yirik asarlar, masalan: A.Babayev – "Konsert fantaziyasi", D.Kabalevskiy – "Konsert" I qism, F.List – "Vengercha Rapsodiya" №6, F.List – "Vengercha Rapsodiya" №2, V.A.Mosart – "Sonata", G.Xanmamedov – "Konsert" №1,№2,№3,

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: O'zbek xalq kuyi – "Navro'zi ajam", F.Sodiqov – "Humor", O'zbek xalq kuyi – "Samoi dugoh", O'zbek xalq kuyi – "Rajabiy", Yu.Rajabiy – "Ra'nolanmasun", M.Tojiyev – "Sharqona rapsodiya"

## QONUN

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1.Pyesalar masalan: F.Sodiqov – "Vatan marshi", Q.Komilov qayta ishlagan – "Turkcha qo'shiq", S.Raxmaninov – "Vokaliz", B.Giyenko qayta ishlagan – "Galalaylum" (Xorazm xalq kuyi), N.Narimanidze – "Davluri", Usta Muhammad Umar – "Gullar raqsi"

2.Yirik asarlar, masalan: G'.Qodirov – "Syuita" I, II, III qismlar, Ch.Obidpur – "Dilbar nozi" (fantaziya), M.Bafoyev – "Qonun nag'masi", A.Geray – "Baxchakurd", I.Fralov – "Ispancha fantaziya", M.Otajonov – "Fantaziya"

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: Xorazm xalq kuyi "Qonun uforisi", Farg'ona-Toshkent yo'llaridan – "Kurd", Buzruk maqomidan – "Rok uforisi", A.Asqarov – "Quvonch", Navo maqomidan – "Tarje navo", O'zbek xalq kuyi – "Jazoir", O'zbek xalq kuyi – "Gulbahor va tanavor", F.Sodiqov – "Humor"

## RUBOB PRIMA

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar, masalan: A.Sigankov – "Korobeyniki", M.Maxmudov – "Qo'shiq va raqs", A. Batssinni – "Gnomlar raqsi", D.Gnutov qay.ishl – "To'rg'ay", A.Nabiyev – "Yumoreska".

2. Yirik asarlar masalan: N.Budashkin – "Konsert", I.S.Bax – "Konsert", P.Sarasate – Karmen operasiga "Fantaziya", K.Kujamyarov – "Konsert pesasi", A.Vivaldi – "Konsert" G-dur.

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: N.Norxodjayev – "Navro'z uforisi", O'zbek xalq kuyi – "Hojiniyoz I-II", M.Murtazoyev – "Tamanno".

## QASHQAR RUBOBI

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar, masalan: M.Otajonov – "Bolgar termalari", V.Minsev – "Fantaziya", A.Pyatssola – "Oblivion", Ya.Sabzanov – "Pomir lirik kuyi",

S.Hayitboyev – “Lirik kuy”, A.Sigankov – “Yevreycha melodiya”, A.Grinshpun – “Rumin xalq kuyi”.

2. Yirik asarlar masalan: S.Aleskerov - “Konsert” I qism, S.Aleskerov – Tor va simfonik orkestr uchun “Konsert” №2. II va III qism, Abdukarim Usmon – “Konsert fantaziya”, G.Xanmamedov – “Konsert” №2 II-III qism, T.Bakixanov – “Konsert” II-III qismlar, M.Otajonov – “Konsert” qashqar rubobi uchun, Ya.Sibelius – “Konsert”.

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na’munalar, masalan: O‘zbek xalq kuyi – “Navro‘zi ajam”, O‘zbek xalq kuyi – “Samoi dugoh”, O‘zbek xalq kuyi – “Rajabiy”, Yu.Rajabiy – “Ra’nolanmasun”, Y.Rajabiy – “Kuygay”, Y.Rajabiy – “Ne navo”, Dugoh maqomidan – “Sarahbori dugoh”.

## AFG‘ON RUBOBI
## Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:

1. Pyesalar, masalan: SH. Sobirov – “Pesa”, N.Savinov - S.Kalonov – “Qo‘shiq va raqs”, A.Shalov – “Valinki”, S.Aleskerov – “To‘xtovsiz harakat”, A.Sigankov – V.Ditel – “Korabeyniki”.

2. Yirik asarlar masalan: B.Feoktistov – “Fantaziya”, M.Otajonov – afg‘on rubobi uchun maxsus yozilgan “Konsert”, X.Xanmamedov – “Konsert”№3 I-qism, F.List – “Vengercha rapsodiya №2,№6”.

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na’munalar, masalan: Dugoh maqomidan – “Mushkuloti dugoh”, R.Qipchoqov – “Tarje navo”, O‘zbek xalq kuyi – “Hojiniyoz” I-II-III, Dugoh maqomidan – “Garduni dugoh”.

## DUTOR
## Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:

1. Pyesalar masalan: A.Shalov – “Valinki”, F.Shopen – “Vals”, Z.Abreu – “Tiko-tiko”, Z.Karaganda – “Mayra”, K.Qurboniyon – “Raqsi kulobi”, V.Gorodovskaya – “Русские напевы”, K.Qurmang‘azi – “Balbiraun”, G.Kubota - A. Sigankov – “Очи чёрные”.

2. Yirik asarlar, masalan: X.Raximov – “Dutor navosi”, A.Shalov – “Fantaziya”, A.Shalov – “Fantaziya”, N.Budashkin – “Konsert variatsiyasi”, A.Kalinkin – “Fantaziya”, O.Abdullayeva – “Dutor ifori”, X.Raximov qayta ishl. – “Sharqona navo”.

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na’munalar, masalan: F.Sodiqov – “Dutorim”, F.Sodiqov – “Favvora”,O‘zbek xalq kuyi – “Qo‘qoncha”, F.Sodiqov – “Humor”, O‘zbek xalq kuyi – “Rohatijon”, O‘zbek xalq kuyi – “Nolish”.

## UD
## Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:

1. Pyesalar masalan: M.Sautov - “Qo‘shiq va qars”, Z.Turapov udga moslashtirgan, M.Abdelwakhab (Misr Arab Respublikasi) - “Aziza”. Z.Turapov udga

moslashtirgan, A.Geray - "Bahcha Kurd", Z.Turapov udga moslashtirgan, U.M.Umar - "Gullar Raqsi", Z.Turapov udga moslashtirgan, S.Karimov - "Navro'z Taronasi", Z.Turapov ud uchun qayta ishlagan, S.Xamroyev - "Raqsi Hindi", Z.Turapov udga moslashtirgan, A.Rohani - "Dele Kuchulu", Z.Turapov udga moslashtirgan, M.Otajonov qayta ishlagan - "Qoradali", Z.Turapov udga moslashtirgan.

2. Yirik asarlar, masalan: L.V.Betxoven - "Sonatina", Z.Turapov udga moslashtirgan, M.Bafoyev - Ud va xalq cholg'ulari uchun "Poema", maxsus yozilgan, M.Bafoyev - "Buxorcha Mavrigi", Trio Jobran - "Termalar", Z.Turapov ud uchun qayta ishlagan, A.Ibragimova (Turkiya) - "Etno Jazz", Z.Turapov ud uchun qayta ishlagan, H.Sakhi (Afg'oniston) - "Jo'sh", Z.Turapov udga moslashtirgan.

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: O'zbek xal kuyi - "Kurd", Z.Turapov udga moslashtirgan, O'zbek xalq kuyi - "Garduni Dugoh", Z.Turapov udga moslashtirgan, O'zbek xalq kuyi - "Gulbaxor va Tanovar", Z.Turapov udga moslashtirgan, O'zbek xalq kuyi - "O'yin Bayoti", Z.Turapov udga moslashtirgan, O'zbek xalq kuyi - "Nasri segoh", "Ufori Nasri Segoh", Z.Turapov udga moslashtirgan, O'zbek xalq kuyi - "Dilhiroj", Z.Turapov udga moslashtirgan.

## DUTOR BAS

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar masalan: K.Kumisbekov – "Poema", Sh.Sobirov dutor bas va fortepiano uchun maxsus – "Shijoat", A.Geray – "Baxchakurd", A.Vlasov – "Melodiya", A.Sigankov – "Yevreycha melodiya", S.Hayitboyev moslashtirgan – "Aliqambar", K.Sen-Sans - "Allegro appassionato", K.Senalye – "Allegro sprittozo", S.Jalil - "Qalbimda".

2. Yirik asarlar, masalan: G.Golterman – "Konsert" №2 I qism, A. Vivaldi – "Konsert", F.List – "Vengercha Rapsodiya", M.Otajonov – "Konsert", J.Jo'rayev – "Konsert", D.Kabalevskiy – "Konsert".

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: O'zbek mumtoz musiqasi – "Chapandozi qalandar", O'zbek xalq kuyi – "Kurd", O'zbek xalq kuyi – "Nasri segoh", Dugoh maqomidan – "Mushkuloti dugoh, garduni dugoh", M.Asgrafiy – "So'zsiz qo'shiq", B.Giyenko – "Improvizatsiya", O'zbek xalq kuyi – "Yolg'iz", O'zbek xalq kuyi – "Navro'zi ajam".

## DUTOR KONTRABAS

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar masalan: X.Raximov – "Qo'shiq", M.Ashrafiy – "So'zsiz qo'shiq", A.Arutyunyan – "Ekspromt", S.Raxmaninov – "Vokaliz", P. Chaykovskiy – "Noktyurn".

2. Yirik asarlar, masalan: S.Ekkels – "Sonata", M.Marchella – "Sonata", A.Pixol – "Konsert", D.Dittersdorf – "Konsert", A.Droganetti – "Konsert".

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: O'zbek xalq kuyi – "Chaman yalla", O'zbek xalq kuyi – "Roq qashqarcha", O'zbek xalq kuyi – "Yolg'iz".

## ZARBLI CHOLG 'ULAR

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Doyra: Pyesalar, masalan: G.Vaskanyan – "Pesa", Xorazm xalq kuyi – "Gala, Laylum", G.Mushel – "To'rt qiz variatsiyasi".
Marimba: Pyesalar, masalan: T.Toshmatov – "Konsert rondo", B.Giyenko – "Roq qashqarcha", M.Maxmudov – "Uvertyura"
2. Doyra:Yirik asarlar masalan: A.Leviyev – "Fantaziya", M.Leviyev – "Yoshlik syuitasi"
Marimba: Yirik asarlar masalan: A.Batssini – "Gnomlar raqsi", I.Bax – "Konsert" a-moll, A.Vivaldi – "Konsert" a-moll, F.List – "Vengercha raqs" №2, P.Kreston – "Konsertino", A.Xachaturyan – "Konsert" III qism.
3. Doyra: Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: Usta Olim Komilov – "Pilla", Usta Olim Komilov – "Zang", Q.Dadayev – "Katta o'yin", E.Barayev – "Larzon", T.Inog'omov – "Shodlik".

## G'IJJAK

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar, masalan: F.Nazarov – "Qo'shiq va raqs", M.Bafoyev – "Buxoroda bayram", M.Bafoyev – "Vals", Ya.Sabzanov – "Yurak dardi", Q.Komilov – "Konsert pesasi", P.Sarasate – "Andaluzcha romans", A.Grinshpun qayt.ishl. – "Rumin xalq kuyi", F.Kreysler – "Муки любви", S.Raxmaninov – "Vokaliz".
2. Yirik asarlar, masalan: Dj.Viotti – "Konsert" №23 III–qism, X.Xanmamedov – "Konsert" I qism, A.Vivaldi – "Konsert" Yil fasllari, G.Gendel – "Sonata", D.Kabalevskiy - "Konsert", J.B.Akkolai – "Konsert", A.Xachaturyan – "Konsert".
3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: O'zbek xalq kuyi – "Hojiniyoz", O'zbek xalq kuyi – "Sharob", G'.Toshmatov – "Guljamol", M.Murtazoyev – "Tamanno", G'.Toshmatov – "Kezarman", O'zbek xalq kuyi – "Yolg'iz", M.Mirzayev – "Ey gul".

## G'IJJAK ALT

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar, masalan: M.Ashrafiy – "So'zsiz qo'shiq", M.Bafoyev – "Sharqona fantaziya", F.Nazarov – "Qo'shiq va raqs", M.Bafoyev – "Buxoroda bayram", M.Bafoyev – "Vals", Ya.Sabzanov – "Yurak dardi", Q.Komilov – "Konsert pesasi", P.Sarasate – "Andaluzcha romans", A.Grinshpun qayt.ishl. – "Rumin xalq kuyi", F.Kreysler – "Muki lyubvi", S.Raxmaninov – "Vokaliz", D.Zokirov – "Qo'qoncha".

2. Yirik asarlar, masalan: Dj.Viotti – "Konsert" №23 III – qism, X.Xanmamedov – "Konsert" I qism, A.Vivaldi – "Konsert" Yil fasllari, G.Gendel – "Sonata", D.Kabalevskiy - "Konsert", J.B.Akkolai – "Konsert", A.Xachaturyan – "Konsert", K.Stamits – "Konsert".

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: O'zbek xalq kuyi – "Hojiniyoz", O'zbek xalq kuyi – "Sharob", G'.Toshmatov – "Guljamol", M.Murtazoyev – "Tamanno", G'.Toshmatov – "Kezarman", O'zbek xalq kuyi – "Yolg'iz", M.Mirzayev – "Ey gul".

## G'IJJAK QOBUS-BAS

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar masalan: A.Vlasov – "Melodiya", A.Ayvazyan – "Gruzincha raqs", M.Ashrafiy – "So'zsiz qo'shiq", A.Arutyunyan – "Ekspromt", S.Raxmaninov – "Vokaliz", P. Chaykovskiy – "Noktyurn".

2. Yirik asarlar, masalan: I.Bax – "Konsert", S.Ekkels – "Sonata", M.Marchella – "Sonata", Y.Gaydn – "Konsert".

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: O'zbek xalq kuyi – "Chaman yalla", O'zbek xalq kuyi – "Yolg'iz", O'zbek xalq kuyi – "Kurd".

## G'IJJAK QOBUS-KONTRABAS

**Abituriyent quyidagi etyud va asarlardan birini ijro etishlari mumkin:**

1. Pyesalar masalan: X.Raximov – "Qo'shiq", M.Ashrafiy – "So'zsiz qo'shiq", A.Arutyunyan – "Ekspromt", S.Raxmaninov – "Vokaliz", P. Chaykovskiy – "Noktyurn".

2. Yirik asarlar, masalan: S.Ekkels – "Sonata", M.Marchella – "Sonata", A.Pixol – "Konsert", D.Dittersdorf – "Konsert", A.Droganetti – "Konsert".

3. Xalq kuylari va bastakorlik asarlaridan na'munalar, masalan: O'zbek xalq kuyi – "Chaman yalla", O'zbek xalq kuyi – "Roq qashqarcha", O'zbek xalq kuyi – "Yolg'iz".

**Ijodiy imtihonda abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezonlar asosida baholanadi:**

<u>Ijro dasturi (ixtisoslik) bo'yicha baholash mezonlari:</u>

| № | Ijro talablari | To'liq javob uchun ball |
|---|---|---|
| 1 | Asar nota matnining to'g'riligi | 10,0 ballgacha |
| 2 | Tovush sifati va uni boshqarish | 10,0 ballgacha |
| 3 | Applikaturaning qo'llanishi | 10,0 ballgacha |
| 4 | Sahna madaniyati | 10,0 ballgacha |
| 5 | Artikulyatsiya talablarining bajarilishi | 10,0 ballgacha |

| | | |
|---|---|---|
| 6 | Musiqiy ifoda vositalarining to‘g‘ri qo‘llanishi | 10,0 ballgacha |
| 7 | Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi | 10,0 ballgacha |
| 8 | Intonatsiya sofligi | 10,0 ballgacha |
| 9 | Asar xususiyatining ochib berilishi | 10,0 ballgacha |
| 10 | Sur’atning to‘g‘ri tanlanishi | 3,0 ballgacha |
| | **Jami** | **93,0 ball** |

**Ijro dasturi (ixtisoslik)** bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball - **93,0 ball.**

## 2-FAN
## MUSIQA TARIXI VA NAZARIYASI

“Musiqa tarixi va nazariyasi” fanidan sinovlar 3 bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqichda abituriyent **“Musiqa adabiyoti”** fani bo‘yicha og‘zaki savollarga javob berishi lozim.

2-bosqichda abituriyent **“Garmoniya”** fani bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim.

3-bosqichda abituriyent **“Solfedjio”** fani bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim.

**1-bosqich “Musiqa adabiyoti”** fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Musiqa adabiyoti” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko‘nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat. Ma’lumki, musiqiy asarlarni ijro etilishida ularning yaratilish davri, yo‘nalishi , janri va shakli tamoyillari yuzasidan bilim ko‘nikmalariga ega bo‘lish talab etiladi. Shunga ko‘ra abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- musiqiy asarlarni yaratilish davri, yo‘nalishi, janri va shakl tamoyillarini bilish;
- mumtoz musiqaning yetuk namunalari xususida birlamchi bilimga ega bo‘lish.

### Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Abituriyent “Musiqa adabiyoti” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lganligini og‘zaki yoki yozma xolda namoyish etishi, o‘z javobini musiqiy namunalarni fortepiano sozida chalib ko‘rsatish yoki kuylab berish orqali tasdiqlashi talab etiladi. Sinov jarayonida abituriyentning eruditsiya, madaniy hodisalarni anglash, musiqa san’atining tarixiy jarayonlardagi ahamiyatini tushunish kabi xususiyatlari yorqin namoyon bo‘lishi kerak.

### “Musiqa adabiyoti” fanidan og‘zaki topshiriqlar:

a) ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yo‘nalishi, ijroning badiiy xususiyatlari v.h);

b) o‘rta maxsus ta’limning umumiy kursi darajasida musiqa adabiyotidan bilimlarni;

v) janr va shakl nuqtai nazaridan kichik hajmdagi sonatina, romans, kuy va boshqa asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni o‘z ichiga oladi;

Shuningdek, “Musiqa adabiyoti”da abituriyentning musiqa san’ati va boshqa san’at turlaridan, o‘zbek va chet el musiqasida ma’lum va mashhur asarlar, zamonaviy an’analar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

1-bosqich bo‘yicha baholash mezonlari:

| № | **Savollar mazmuni** | **To‘liq javob uchun ball** |
|---|---|---|
| 1 | Asarga oid savollar | 3,0 ballgacha |
| 2 | Chet el musiqa adabiyoti bo‘yicha savollar | 6,0 ballgacha |
| 3 | O‘zbek musiqa adabiyoti bo‘yicha savollar | 6,0 ballgacha |
| 4 | Asarning janr va shakl nuqtai nazaridan tahlili | 6,0 ballgacha |
| | **Jami** | **21,0 ball** |

**1-bosqich “Musiqa adabiyoti”** fani bo‘yicha baholash uchun qo‘yiladigan maksimal ball — **21,0 ball.**

**2-bosqich “Garmoniya”** fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Garmoniya” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko‘nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat.

Abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- klassik garmoniyaning nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni fortepianoda ijro etish orqali namoyon etish;
- garmonik tushunchalarini qo‘llash orqali Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish, diatonik yoki xromatik sekventsiyalarni ijro etish.

**Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar**

Abituriyent **“Garmoniya”** fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lgan holda og‘zaki mashqlarni xatosiz bajarish, garmonik qonuniyatlarni yechimini fortepianoda erkin namoyon etish, tahlil jarayonida garmonik nazariy va amaliy ko‘nikmalarini namoyish qilish, shuningdek, fan bo‘yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo‘lishi kerak. Talabaning garmonik eshitish qobiliyati, garmonik tuzilmalarni fortepianoda ijro etish mahorati yorqin namoyon bo‘lishi kerak.

**Garmoniya fanidan abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:**

## OG‘ZAKI TOPSHIRIQLAR

1. Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyalarni fortepianoda ijro etish.
2. Diatonik yoki xromatik sekventsiyalarni ijro etish.

2-bosqich bo‘yicha baholash mezonlari:

| № | Savollar mazmuni | To‘liq javob uchun ball |
|---|---|---|
| 1 | Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish. | 15,0 ballgacha |
| 2 | Diatonik yoki xromatik sekventsiyalarni ijro etish. | 6,0 ballgacha |
| **Jami** | | **21,0 ball** |

**2-bosqich “Garmoniya”** fani bo‘yicha qo‘yiladigan maksimal ball – **21,0 ball.**

**3-bosqich “Solfedjio”** fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi – barcha ixtisosliklar uchun musiqiy eshitishni rivojlantirish va kasbiy tayyorlanishda eng muhim predmetlardan hisoblanadi. Musiqiy eshitish darajasining yuqoriligi, kuylash malakasi va musiqiy xotirani kuchliligi xonanda va dirijyorlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Fanni o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar — abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Solfedjio fani bo‘yicha talabalar o‘rganilayotgan materialning qaysi millatga taalluqli bo‘lishidan qat’iy nazar musiqiy eshitish, xotirani har tomonlama rivojlantirish, kuylash va tinglash jarayonida tovush tozaligini nazorat qilish kabi tasavvur, tushuncha va bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

### Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Abituriyent “Solfedjio” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lishi, notaga qarab kuylashi, musiqiy-nazariy va amaliy ko‘nikmalarini ko‘rsatib berishi, shuningdek, fan bo‘yicha bilimlari yuqori darajada bo‘lishi talab etiladi. Talabaning solfedjio fanidan qobiliyati yorqin namoyon bo‘lishi kerak.

**Solfedjio fanidan abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:**

### OG‘ZAKI:

1. Notanish bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash.
2. Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.

3-bosqich bo'yicha baholash mezonlari:

| № | Savollar mazmuni | To'liq javob uchun ball |
|---|---|---|
| 1. | Notanish bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash: | |
| a) | Tonallikni to'g'ri aniqlash | 2,0 ballgacha |
| b) | Sof kuylash | 7,0 ballgacha |
| c) | Ritmik ketma-ketlikka aniq rioya qilish | 6,0 ballgacha |
| 2. | Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash | 6,0 ballgacha |
| **Jami** | | **21,0 ball** |

**3-bosqich "Solfedjio"** fani bo'yicha qo'yiladigan maksimal ball — **21,0 ball.**

"**Musiqa tarixi va nazariyasi**" fani bo'yicha qo'yiladigan maksimal ball - **63,0 ball.**

**Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.**

## Ijodiy imtihonni o'tkazish tartibi

60211509 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (nay-qo'shnay, bayan-akkordeon);

60211510 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (chang, qonun);

60211511 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (rubob prima, qashqar va afg'on rubobi);

60211512 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (dutor, dutor bas, dutor kontrabas, ud, tanbur, dombira);

60211513 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (zarbli cholg'ular);

60211514 – Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (g'ijjak, g'ijjak alt);

60211515 - Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (g'ijjak qobus-bas, g'ijjak qobus-kontrabas).

Ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Toshkent shahridagi O'zbekiston davlat konservatoriyasi binosida ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi bo'yicha imtihonni qabul qilib oladi.

## Apellyatsiya tartibi

Oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i bilan 3 nafardan kam bo'lmagan tarkibda sohaning yetuk mutaxassislari va oliy ta'lim tashkilotining

tajribali xodimlari, professor-o‘qituvchilaridan iborat apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a’zolarining kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Imtihonni qabul qilgan kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a’zosi apellyatsiya jarayonida qatnashib, o‘z fikrini bildirish huquqiga ega.

Abituriyentlarning apellyatsiya shikoyatlari kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e’lon qilingan kundan (vaqtdan) boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan uch kun muddat ichida ko‘rib chiqiladi. Abituriyent apellyatsiya shikoyatini ko‘rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega. Apellyatsiya arizasining ko‘rib chiqilish vaqti va joyi haqida abituriyentga kamida bir kun oldin xabar beriladi.

Apellyatsiya murojaati faqat abituriyentning o‘zi to‘plagan ballari yuzasidan qabul qilinadi. Boshqa abituriyentlarga oid shikoyat arizalari ko‘rib chiqilmaydi.

**Asos:** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan Nizom.